



O'ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASHDA SHAXSIY SUG'URTA XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Mirzoyev Sayfullo Fayzullayevich

O'zbekinvest" EISK AJ Korporativ mijozlar bilan ishlash va hududiy rivojlantirish departamenti Bosh menejeri, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 1 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss1/a9	Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida shaxsiy sug'urtaning aholini ijtimoiy himoya qilishdagi o'rni, ushbu masalada sug'urta bozori professional ishtirokchilari tomonidan shaxsiy sug'urta xizmatlarining sifatini oshirish, mijozlarga turli qulayliklar yaratish va shular orqali ularning ishonchini qozonishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, shaxsiy sug'urta bozorida xizmatlar hajmini oshirish bo'yicha sug'urta kompaniyalari, xususan, "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinib xulosalar shakllantirilgan.
KEYWORDS	<i>sug'urta, sug'urta bozori, sug'urta mukofoti, sug'urta majburiyati, sug'urta shartnomasi, sug'urta qoplamasi, baxtsiz hodisa, ijtimoiy himoya, sug'urta madaniyati.</i>

Kirish

Sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlarda sug'urta ijtimoiy himoyaning qismi sifatida namoyon bo'lib, shaxsiy sug'urta turlari bunda yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu sug'urta tarmog'ining iqtisodiyot uchun investitsion manba sifatidagi xizmatlari yanada muhimlik kasb etadi. Bozor munosabatlariga asoslangan davlatlar iqtisodiyotida sug'urta bozori investitsiya resurslarining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Sug'urta potensial xavflarni oldini olish va yuzaga kelgan zararlarni qoplash bilan iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.


So'nggi olti yil ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda keng miqyosdagi islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlari subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yetakchi xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish borasida ishlar olib borilib, mazkur sohalariga chet el sarmoyalari jalb qilindi, mamlakatdagi mavjud investitsion imkoniyatlar evaziga tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratilib, ularning soni va faoliyat hajmining kengayishiga erishildi.

Shuningdek, mazkur subyektlarning erkin faoliyatini ta'minlash maqsadida mavjud huquqiy va me'yoriy hujjatlar xalqaro va zamon andozalariga moslashtirilmoqda, shu bilan birga, bir qator yangi qonun va qonun osti hujjatlari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblangan va aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlovchi muhim soha bo'lgan sug'urta yo'nalishida oxirgi 6 yilda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, sug'urta bozorini yanada rivojlantirish, soha faoliyatini tartibga solish va liberallashtirish, investorlar uchun jozibador bo'lishini ta'minlash, elektron sug'urta xizmatlarini joriy qilishga qaratilgan qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilindi. Xususan, 2021-yil 23-noyabrda yangi tahrirdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida" Qonun [1], 2019-yil 2-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi [2], 2021-yil 23-oktyabrda PQ-5265-sonli "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [3] Qarorlarining qabul qilinishi sohani rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot maqsadi va usullari. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad O'zbekistonda shaxsiy sug'urta xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotni amalga oshirishda empirik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi davrda jahonda bo'layotgan o'zgarishlar, globallashuv jarayonlari iqtisodiyot sohalariga hamda aholining ijtimoiy holatiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Tabiatda kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari, turli tabiat hodisalarining sodir bo'lish holatlari ortib bormoqda. Bularning barchasi iqtisodiyot sohalariga va insoniyatga moliyaviy zararlar yetishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish sohalarida turli zamonaviy texnologiyalar va texnika vositalarini qo'llash jarayonlarida turli ko'rinishdagi baxtsiz hodisalarning sodir bo'lish ehtimolini oshirmoqda. Ishchi va xodimlar hamda aholi bilan bog'liq baxtsiz hodisalar, kasbiy va boshqa ko'rinishdagi kasalliklar natijasida ko'rilgan zararlarni qoplashda shaxsiy sug'urtaning ijtimoiy ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan aholi va yuridik shaxslarga sug'urtaning afzallik tomonlari keng targ'ib qilinmoqda, ammo bu ishlarni hali yetarli deb bo'lmaydi. Chunki, chekka tumanlarda, qishloq joylardagi aholiga sug'urtaning mazmun-mohiyati, uning imkoniyat va afzalliklari to'g'risida ma'lumotlar to'liq yetkazilmayapti va natijada ular sug'urta to'g'risidagi tushunchalar to'liq shakllanmay qolmoqda. Buning natijasida fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mulklari bilan bog'liq potensial risklar sug'urtalanmay qolmoqda, shunday hodisalar yuz berganda esa fuqarolar tang ahvolga tushib qolishi va bunday holatda ular faqat davlatning va mehr-shafqat ko'rsatuvchi insonlar ko'magiga muhtoj bo'lib qolish holati yuzaga kelmoqda. Misol tariqasida 2020-yilning aprel va may oylarida respublikaning Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida kuzatilgan noqulay ob-havo, ya'ni tabiat hodisalari (kuchli shamol va ko'p yomg'ir yog'ishi) hamda Sirdaryo viloyati Sardoba suv omborida sodir bo'lgan texnologiya hodisaning yuz berishi natijasida ushbu hududlar aholisining hayoti, sog'lig'i, uy-joylari, transport vositalari va chorva mollari, shu bilan birga tashkilot va tadbirkorlik subyektlarining mol-mulkulariga katta hajmda moddiy zarar yetdi.



1-Rasm. Sug'urta kompaniyalari tomonidan baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha 2017-2021-yillarda amalga tuzilgan shartnomalar va olingan majburiyatlar*.

2020-yil 27-aprelda Buxoro viloyatining ayrim hududlariga kuchli shamol siklonining kirib kelishi natijasida binolarning tom qismlariga katta zarar yetib, 41 085 ta xonadon va 842 ta ijtimoiy obyektlar zarar ko'rdi. Ushbu voqea natijasida yetkazilgan zararlardan bo'yicha faqat issiqxona xo'jaliklariga 12,0 mlrd.so'mlik zararlardan sug'urta kompaniyalari tomonidan qoplab berildi (1,2 mln. AQSH dollari miqdorida), yetkazilgan zararining umumiy miqdori esa 140,0 mlrd.so'mni (14,0 mln. AQSH dollari miqdorida) tashkil etdi. Boshqa binolar sug'urtalanmaganligi ma'lum bo'ldi.

Sirdaryo viloyati Sardoba suv omborida bo'lgan texnogen hodisa (ombordan suv sizib chiqishi) natijasida viloyatning 3 ta tumanidagi aholi punktlarini suv bosib, buning oqibatida 70 mingdan ortiq aholi zarar ko'rdi, xususan 4351 ta xonadon (uyalar), 24 ta ko'priklar va 276 kilometr yo'llar suv ostiga qolishi natijasida ularning bir qismi butunlay yo'q bo'lib ketdi va qolganlariga jiddiy zarar yetdi. Shuningdek, qo'shni Qozog'iston Respublikasining 5 ta qishlog'iga suv toshqinlari yetib bordi va natijada 845 ta uy-joy suv ostida qoldi, 31 mingdan ortiq aholini boshqa joylarga ko'chirishga to'g'ri keldi. Qilingan hisob-kitoblarga ko'ra, zarar va xarajatlar 1,5 trln.so'mni (150,0 mln. AQSH dollari miqdorida) tashkil etdi.

Ushbu sodir bo'lgan hodisalar bo'yicha "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urtalangan bino va boshqa mulklarga yetkazilgan zararlarni qoplashni so'rab aholi va tadbirkorlardan 262 ta da'vo arizalari kelib tushgan va ular bo'yicha 5,77 mlrd. so'mdan ortiq sug'urta tovonlari to'lab berilgan. Shundan, tabiiy ofatlar bo'yicha 242 ta da'vo arizalariga 3,55 mlrd.so'm va texnogen ofat bo'yicha 20 ta da'vo arizalariga 2,22 mlrd. so'm miqdorida sug'urta tovonlari to'lab berilgan [4].

Biroq, ushbu masaladagi o'rganishlar tabiiy va texnogen hodisalar natijasida zarar ko'rgan aholi va tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi sug'urtalanmaganligini ko'rsatdi. Natijada, jabrlanganlarning ko'p qismi sug'urta himoyasini olishmadi, lekin ularga davlat tomonidan kompensatsiya berildi, ya'ni bu byudjet xarajat yukining oshishiga olib keldi.

Yuqorida keltirilgan tabiiy va texnogen hodisalar natijasida sug'urtalangan obyektlarga hamda fuqarolarga yetkazilgan zararlarning sug'urta kompaniyalari tomonidan to'lab berilganligiga guvoh bo'lgan mazkur hududlardagi aholida sug'urta xizmatlarining mohiyati va foydalilik xususiyatlarining guvohi bo'lganliklari natijasida ular sug'urtaga bo'lgan qiziqish va ishonch ortdi va natijada ular tomonidan o'z mulklari va hayotlarini sug'urtalash maqsadida sug'urta kompaniyalariga murojaat qilish holatlari ko'paydi.

Shuning uchun, sug'urtaning mohiyati va afzalliklarini keng ko'lamda targ'ib qilish bugungi kunning sug'urta sohasidagi dolzarb masalalaridan hisoblanadi, zero Davlatimiz rahbarining 02.08.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ham bu masala ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan.

Bundan tashqari, qarorda sohaga zamonaviy va ilg'or xorij andozalarini kiritish, xizmatlar sifati va tezkorligini oshirish uchun innovatsion g'oyalarni qo'llash hamda sohada kadrlar salohiyatini oshirish, ularning bilim ko'nikmalarini xalqaro tajribalar asosida boyitish va xorijda o'qishlarini tashkil etish kabi vazifalar belgilangan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 18-aprelda tibbiyot xodimlari bilan "Tibbiyotdagi islohotlar - inson qadri uchun" mavzusida o'tkazilgan ochiq muloqotda aholining ijtimoiy himoyasi masalasiga

jiddiy e'tiborini qaratdilar. Muloqotda, tibbiy sug'urta shakllarini rivojlantirish, ekologiya oqibatida fuqarolar sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplab berish majburiyatini davlat zimmasiga yuklash hamda tibbiyot xodimlarining yuksak maqomini ta'minlash uchun

Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritilishi va bu tajribani dastlab Sirdaryo viloyatida boshlashni, keyinchalik zarur tayyorgarlikni ko'rib, bosqichma-bosqich barcha hududlarda joriy etilishi taklif qilindi [5].

Yuqorida ta'kidlangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zbekinvest" eksport import sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati bir qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. Kompaniya 2022-yil uchun alohida dasturlarni ishlab chiqdi, xususan mahallalar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali, mahallabay tizimida ishlash bo'yicha tadbirlarni belgiladi.


Ma'lumki, O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish, ya'ni mahalla fuqarolar yig'inining jamiyatdagi o'rni muhim. "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi mahallabay tizimida ishlash aholini sug'urta bilan qamrab olish uchun sug'urta xizmatlari hajmini oshirish maqsadida tegishli tadbirlarni tashkil etmoqda. Jumladan, aholi va yirik korxonalar xodimlari va oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida hamda turli oila xonadoniga kirish orqali, birinchi navbatda sug'urta to'g'risida tushunchalar berish va sug'urtaning afzalliklarini tushuntirish maqsadida uchrashuvlar, davra suhbatlari va taqdimotlar o'tkazib qilinmoqda.

Hozirgi kunda sug'urta bozori professional ishtirokchilari tomonidan ushbu tadbirlarni son va sifat jihatidan ko'paytirishi talab etilmoqda, bu o'z navbatida mijozlarning sug'urta bo'lgan qiziqishini va xizmatlar hajmini oshirish imkonini beradi.

Sug'urta bozorida yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadbirlarning amalga oshirilayotganligi respublikada sug'urta ko'rsatkichlarining ijobiy o'zgarishlarini ta'minlamoqda. Misol uchun, respublika bo'yicha sug'urta kompaniyalari tomonidan aholini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash yuzasidan 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan ishlarni ko'rib chiqsak.

1 va 2 rasmlarni taxlil qilganimizda, 1-rasm bo'yicha 2019 va 2020-yillarda tuzilgan sug'urta shartnomalari sonida kamayish yuz bergan, 2-rasm bo'yicha qaralganda 2017, 2018 va 2019-yillarda sug'urta hodisalari bo'yicha mijozlarga to'langan sug'urta tovonlari miqdori sezilarli oshgan bo'lib, bu andarraytingning samarasiz bo'lganligidan dalolat beradi. Natijada kompaniya tomonidan amaldagi andarrayting siyosatini o'zgartirishga zarurat tug'ilgan va bu 2019-2020-yillarda tuzilgan sug'urta shartnomalarining soni kamayishiga sabab bo'lgan. Ushbu holatga 2020- yilda boshlangan pandemiya ham sabab bo'lganligini ta'kidlash mumkin. [6].

Biroq, ushbu diagrammalarga asoslangan holda yana bir holatni keltirish mumkin, bu davrda shartnomalar soni kamaygan bo'lsada, sug'urtaning mijozlar oldidagi ijtimoiy himoya darajasi ko'tarilgan, ya'ni sug'urta tashkilotining mijoz oldidagi majburiyati oshgan va o'z navbatida ko'rilgan zarar bo'yicha sug'urta tovonlari miqdori ham oshgan.



3-Rasm. “O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasi tomonidan baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash bo‘yicha 2017-2021-yillarda tuzilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta mukofoti va tovonlari*.

*“O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Bu tendensiya yildan yilga oshmoqda, boshqacha aytganda mijozlar sonining, sug‘urta mukofoti va sug‘urta to‘lovlarining oshib borishi, sug‘urtaning ijtimoiy himoya sifatidagi ahamiyatining hamda mijozlarning sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan ishonchining ortishiga, ularning sug‘urta to‘g‘risidagi qarashlarini ijobiy tomonga o‘zgarishiga olib kelmoqda.

“O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasi misolida olib qaraydigan bo‘lsak (3-4-rasmlar), kompaniya tomonidan 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan ishlar natijasida ko‘rsatkichlar o‘sib borayotganini ko‘rish mumkin.

3 va 4-rasmda “O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasida baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash turi bo‘yicha olingan besh yil davomida to‘plangan sug‘urta mukofotlari hamda to‘lab berilgan sug‘urta qoplamalari doimiy o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan [7]. Xususan,

2021-yilda 2020-yilga nisbatan sug‘urta shartnomalari soni 195% ga, sug‘urtalanuvchilar oldidagi sug‘urta majburiyatlari hajmi 129% ga, yetkazilgan zarar uchun to‘langan sug‘urta tovonlari miqdori 145% ga oshgan. Bu ko‘rsatkichlarga parallel ravishda sug‘urta mukofotlari ham oshib, ushbu o‘sish 185% ni tashkil etgan.

Xulosa. Yuqorida ko‘rsatilgan natijalarni yanada yaxshilash, aholini sug‘urta xizmatlari bilan qamrab olishni yanada kengaytirish uchun bozor potentsiali yetarli bo‘lsada, biroq respublikada hali sug‘urtalanishi mumkin bo‘lgan aholining katta qismi sug‘urtaga olinmagan. Buning uchun sug‘urta kompaniyalari va ko‘p sonidagi mavjud sug‘urta agentlari marketing ishlarini va reklama faoliyatini

izchil ravishda amalga oshirib borishlari va bunda e’tiborni ayniqsa chekka hududlarga hamda aholi gavjum markazlarga qaratishlari zarur.

Bugungi kunda dunyoda barcha sohalarida rivojlanish va jadal o‘zgarishlar bo‘layotganligini inobatga olib, respublikamiz sug‘urta bozorini rivojlantirish uchun sug‘urta bozori professional ishtirokchilaridan quyidagilarni tashkil etishni tashkil etishni, aholini sug‘urtalash qamrovini oshirishda muhim o‘rin tutadigan shaxsiy sug‘urta turlari bo‘yicha xizmatlarni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz:


- aholi hamda xususiy va kichik biznesning sug‘urta madaniyatini va huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan ommaviy tadbirlarni doimiy ravishda amalga oshirib borish, sug‘urtaning afzalliklarini tushuntirib borish, buning uchun ijtimoiy reklamani keng yo‘lga qo‘yish va uni

- internet va ijtimoiy tarmoqlarda hamda ommaviy axborot vositalari orqali aholiga yetkazish;

- sug‘urta da’volari bo‘yicha aholiga sug‘urta tovonlarini o‘z vaqtida va to‘laqonli qoplab berish tizimini tubdan takomillashtirish va bu borada shaffoflikni ta’minlash, jumladan ushbu yo‘nalishda elektron xizmatlarni, sohada raqamlashtirishni yo‘lga qo‘yish hamda mijozlar xabardorligini oshirish;

- sug‘urta bozorini jadal suratlar bilan raqamlashtirish va zamonaviy onlayn xizmatlarga ommaviy ravishda o‘tilishni ta’minlash, jumladan «Face ID» tizimini yo‘lga qo‘yish va uni rivojlantirish, sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining bilim va malakalarini doimiy ravishda oshirib borish tizimini yaratish, xususan ilg‘or xorij tajribasini o‘rgatish;

- aholining sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish maqsadida sug‘urta tariflari va ularning shartlarini takomillashtirish va soddalashtirish, jumladan shaxsiy sug‘urta turlari bo‘yicha aktuar tahlillar tizimini yaratish va sug‘urta mahsulotlari anderaytingini modernizatsiya qilish, aktuar hisob kitoblarni innovatsion g‘oyalar asosida yuritish hamda unga ilg‘or va zamonaviy tajribalarni tatbiq qilish;



4-Rasm: “O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasi tomonidan baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash bo‘yicha 2017-2021-yillarda tuzilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta mukofoti va tovonlari.*

*“O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

- sug'urta sohasining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan omillarni kamaytirish uchun bozor talablari asosida sug'urta xizmatlari sifatini yanada oshirish va shaffoflikni ta'minlash uchun milliy qonunchilik asoslarida elektron xizmatlarni joriy qilish, yangi zamonaviy sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish hamda mavjudlarini bozor talabi va jahon tajribasi asosida modernizatsiya qilish.

Yuqorida taklif etilgan masalalarda davlatning ishtirokini ta'minlash va maxsus Davlat dasturlari ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu tadbirlar samaradorligi yanada yuqori bo'lishi uchun bozor talablariga mos yangi zamonaviy sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish va

mijozlarga sug'urta hodisasi natijasida ko'rgan zararlarini o'z vaqtida ko'rib, zararni tezkor to'lash choralari ko'rish juda muhim hisoblanadi. Amalga oshiriladigan tadbirlar albatta sug'urtaning asl mohiyatini va uning afzalligini ko'rsatib berishi hamda mijozlar ishonchini qozonishga xizmat qilishi muhim hisoblanadi.

References:

1. "Xalq so'zi" gazetasida 24.11.2021-yilda e'lon qilingan.
https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/sugurta_faoliyati_tugrisidagi_qonunning_yangi_tahriri_qabul_qilindi
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019-yil 3-avgust, "Xalq so'zi", 2019y. 3-avgust, "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2019-yil 12-avgust, 32-son, 549-modda
3. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2021-y., 07/21/5265/0992-son.
4. "O'zbekinvest EISK" AJning 2020-yil ma'lumotlar bazasidan.
5. Gazeta.uz–yangiliklar portali.
6. https://www.gazeta.uz/uz/2022/03/18/constitution/?utm_source=push&utm_medium=telegram.
7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlar bazasidan (2021-y. hisoboti bo'yicha). <https://imda.uz/uz/2021-yillik-korsatgichlar/>
8. "O'zbekinvest EISK" AJning (<https://uzbekinvest.uz/>) yagona avtomatlashtirilgan axborotlar tizimi (2021-y. hisoboti bo'yicha).